

**BUDJET JARAYONI MOHIYATI VA TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRUVCHI  
DAVLAT ORGANLARI VA ULARNI VAKOLATLARINI O'RGANISH**

**Maribjonov Botirjon**

*Andijon mashinasozlik instituti Buxgalteriya hisobi  
va menejmenti kafedrasi assistenti*

Budjet jarayoni – bu davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon hisoblanadi.

Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan joriy yilning 1-iyulidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi. Kelgusi moliya yiliga tegishli budjetlar loyihalarini tumanlar va shaharlar moliya organlari tomonidan mahalliy hokimiyat, vakillik organlari belgilangan tartibda va muddatlarda faqat joriy yilning 25-iyunidan kechiktirmay yuqori moliya organlariga taqdim etiladi.

Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari davlat maqsadli jamg'armalarini tavsimlovchi organlar tomonidan Vazirlar Mahkamasi belgilangan tartibda va muddatda faqat joriy yilning 1-iyulidan kechiktirmay Moliya Vazirligiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi kelgusi moliya yiliga mo'ljallanan davlat budjeti loyihasini tuzadi va joriy yilning 15-sentabrgacha hisob (varaqa-siga) palatasiga taqdim etadi. (2007 yil 27 apreldagi o'zgartirishga binoan) hisob palatasining xulosasi bilan birga joriy yilning 1-oktabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taqdim etadi.

Davlat budjeti loyihasini Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15-oktabrdan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreldan kechiktirmay taqdim yetadi. Vazirlar Mahkamasi 5-aprelgacha Audit va baholash uchun hisob palatasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotga doir xulosasini 10-maygacha Vazirlar Mahkamasiga taqdim yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni hisob palatasining xulosasi bilan birga Oliy Majlis tastig'iga kiritadi.

Budjetni ijro etish:

1. Barcha turdagi budjet daromadlari mazkur qonunda kuzda tutilgan muddatlarda va tartibda shuningdek soliq kodekslari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik aktivlarda ko'zda tutilgan tarzda shakllanadi.

2. Budgetga daromadlarni o'z vaqtida kelib tushishi uchun soliq va bojxona organlari ma'suldirlar.

3. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni budgetga o'tkazish muddati qonunlar bilan belgilanadi. Yuridik shaxslardan to'lanmagan soliqni so'zsiz undirib olish soliq organlari zimmasiga yuklatiladi.

4. Joriy yilning 31 dekabrigacha budgetga o'tkazilmagan daromadlar keyingi yilda o'tkaziladi.

Budget jarayoni hokimiyati organlarining budgetni tuzish, ko'rib chiqish, bajarish bilan bog'liq qonun bilan tartibga solib turiladigan faoliyatdir. Budgetni tuzish va amalda bajarish ijro etuvchi hokimiyat tomonidan, uni tasdiqlash esa qonun chiqaruvchi organ tomonidan bajariladi.

Davlat budget loyihasini tayyorlash.

Shaharlar va tumanlar hokimiyatlari (uning tarkibiga kiruvchilar) keyingi moliya yili uchun ko'rsatiladigan hududlar buyicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan budget loyihalarini kelishilgan muddatlarda (ammo yigirma beshinchi iyundan kechikmasdan) yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va boshqarmalari, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining bo'lim va boshqarmalari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining budgetidan mablag' oluvchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlari moliya bo'limlariga kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan muddatlarda (ammo birinchi iyundan kechiktirmasdan) o'zlarining arizalarini topshiradilar.

Davlat budgeti loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga taqdim etilishi:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolati bilan birgalikda birinchi oktabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga budget loyihasini taqdim etadi. Budget loyihasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Davlat budgeti loyihasi tuzilgan o'rta asosiy makroiqtisodiy ko'rsatichlar;
2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining budget siyosatining asosiy yo'nalishlari;
3. O'tgan yilgi va joriy yilning birinchi yarim yilida budgetning bajarilishi bo'yicha hisobot;
4. Harakatdagi klassifikatsion tizimga ko'ra keyingi yil uchun daromad va xarajatlar prognozi;
5. Makroiqtisodiy tahlil natijalariga asoslangan keyingi moliya yili uchun tuzilgan budget daromadlari va xarajatlari prognoziga kommentariy;
6. Harakatdagi va tasdiq uchun taqdim etilayotgan budget programmasining ro'yxati;
7. Joriy investitsiyalar uchun kapital quyilmalarning prognozi;

8. Davlatning tashqi va ichki qarzlarining holati va bular buyicha o'tgan moliya yilidagi mablag'lar harakati;

9. Davlat korxonalarining o'tgan va o'tayotgan moliya yilidagi moliyaviy holati, kelgusi moliya yili uchun asosiy moliya ko'rsatkichlarining prognozi;

10. Kelgusi yil uchun davlat budjeti haqidagi qonunning loyihasi.

Tasdiqlangan daromad va xarajatlarning hajmi bo'yicha ma'lumotlar berish.

Davlat budjeti haqidagi qonun qabul qilinganidan keyin O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi bir xaftalik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi va Bojxona Qo'mitasini tasdiqlangan daromadlar hajmi bo'yicha ma'lumotni beradi. 10 kunlik muddat ichida Moliya vazirligi Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni belgilangan daromad va xarajatlar hajmi bo'yicha ma'lumotni beradi. Mahalliy darajadagi korxonalar va tashkilotlarga budjet daromad va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotni berish xuddi shu tarzda bir xaftalik ichida amalga oshiriladi.

Davlat budjetni bajarilish va uni bajarish ustidan nazorat:

1. Barcha turdagi budjet daromadlari mazkur qonunda ko'zda tutilgan muddatlarda va tartibda shuningdek soliq va bojxona kodekslari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik aktlarda ko'zda tutilgan tarzda shakillanadi.

2. Budjetga daromadlarni o'z vaqtida kelib tushishi uchun soliq va bojxona organlari ma'suldirlar.

3. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga o'tkazish muddati qonunlar bilan belgilanadi. Yuridik shaxslardan to'lanmagan soliqni so'zsiz undirib olish soliq organlari zimmasiga yuklatiladi.

4. Joriy yilning 31 dekabrigacha budjetga o'tkazilmagan daromadlar keyingi yilda o'tkaziladi.

Davlat budjetidan xarajat qilishning asosiy qoidalari:

1. Davlat budjeti xarajatlari budjet mablag'larini oluvchi tomonidan davlat budjeti to'g'risidagi qonun aniqlangan smeta xarajatlari va yo'naltirilish sertifikatlariga asosan budjet assignovaniyasi chegarasida amalga oshiriladi.

2. Xo'jalik shartnomalari bo'yicha xarajat qilgan budjet mablag'lari keyingi moliya yilida budjet assignovaniyasi hisobidan to'lanadi.

3. Respublika budjet tashkilotlari schotida qolgan budjet mablag'lari moliya yilining oxirgi ish kunida Respublika budjet schotiga o'tkaziladi. Mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar uchun ham shu tartib amal qilinadi.

4. Barcha darajadagi budjetlarning schotlarida qolgan budjet mablag'lari kassa aylanmasini shakllantirish uchun yo'naltiriladi.

5. Tasdiqlangan kassa aylanmasidan qolgan qoldiq mablag'lar hukumat organlarining qaroriga ko'ra boshqa yo'nalishlarga xarajat qilinishi mumkin. Davlat budjetini kassa bajarilishini nazorat qilish Oliy Majlis tomonidan vakolatlangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi, chunki davlat budjetini daromad va xarajatlari bo'yicha o'tkazmalar markaziy bank qoshida ochilgan hisob-kitob schotida amalga oshiriladi.

6. Moliya vazirligi har chorakda Vazirlar Mahkamasiga davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, assotsatsiyalar, Qoaraqolpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining davlat budjetini bajarilishini borish to'g'risida har chorakda hisobotni tinglaydi.

7. Mansabdor shaxslar moliya vazirligi va uning joylardagi organlariga taftish va tekshiruvlar o'tkazishdagi yordam berishga majburdilar. Harakati tekshirilayotgan shaxslar kerakli ma'lumotlarni yozma yoki elektron shaklda taqdim etishga majburdir.

8. Har yili 1 aprelgacha Moliya vazirligi Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisga o'tgan moliya yilidagi o'zining taftish faoliyati natijalari bo'yicha hisobot beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma.T.: "Iqtisod-moliya" 2008 y. 316 b.

2. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. darslik "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent-2020 y. 14 b.

3. Malikov T.S. "Byudjet-soliq siyosati" T.: "Iqtisod-moliya" 2019 y.

4. Lex.uz O'RQ-813-son Toshkent sh., 2022-yil 30-dekabr 1-ilova

5. Lex.uz O'RQ-813-son Toshkent sh., 2022-yil 30-dekabr 2-ilova

6. Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.

7. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.

8. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 9. Turayev S. et al. The importance of modern composite materials in the development of the automotive industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2021. - T. 10. - №. 3. - C. 398-401.

10. Turaev S. A., Rakhmatov S. M. O. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation //Asian Journal of Multidimensional Research. - 2022. - T. 11. - №. 3. - C. 34-38.

11. To'raev Sh. A. Avtomobillarda ishlatiladigan plastik detallariga qo'yiladigan talablar va ularning mexanik xossalarini tadqiq qilish. - 2022..

12. To'raev Sh. A. Avtomobil vtulkalarining har xil polimer materiallarini yeyilishini aniqlash. - 2021.